

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 114 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	



TURIZM SOHASI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI



Ergashev Rahmatulla Xidirovich

I.f.d., Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori



Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, mintaqada turli tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirish, o'z navbatida, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'sishi va ma'lum omillar asosida rivojlanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, rentabellik, turistik xizmatlar, turistik imidj, iste'mol modellari.

Abstract: This article highlights the importance of the tourism sector in the socio-economic development of the country, increasing the competitiveness of various sectors in the region, and in turn, the growth of the socio-economic development of the region and its development based on certain factors.

Key words: tourism, socio-economic indicators, profitability, tourist services, tourist image, consumption models.

Аннотация: В данной статье подчеркивается значение туристической сферы в социально-экономическом развитии страны, повышении конкурентоспособности различных отраслей региона и, в свою очередь, росте социально-экономического развития региона и его развитии на основе определенных факторы.

Ключевые слова: туризм, социально-экономические показатели, рентабельность, туристические услуги, туристический имидж, модели потребления.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda globallashuv va xalqaro raqobat jarayonlari kuchaymoqda. Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va ushbu sohada davlat tomonidan tartibga solishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish ham iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va strategik rejalashtirishning ajralmas qismidir. O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida turizmni barqaror va izchil rivojlantirish va unda davlat boshqaruvining ahamiyati, mavjud resurslardan samarali foydalanish va muqobil loyihalar asosida yangi resurslarni iqtisodiy muomalaga jalb qilish orqali ma'lum ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Turizm mintaq va jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asoiy bo'g'inlardan biri bo'lib, ushbu sektor infratuzilma tizimiga taalluqlidir. Turizmning iqtisodiyot va davlat byudjetiga katta daromad keltirishi, tizmining tashkiliy va boshqaruv salohiyati holatini asoslaydi. Yuqori talablarning qondirilishi va ko'rsatkichlarning o'sishi turizm sohasini iqtisodiyotning yetakchi rentabelli sohalaridan biriga aylantiradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi taxminan 2 foizdan 10 foizgacha, turizm iqtisodiyotining muhim elementi hisoblangan mamlakatlarda esa 10 foizdan ortiqni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichlar turizmning ahamiyati jahon miqyosida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Shu boisdan yirik xalqaro nufuzli



turistik tashkilotlar Budapesht konventsiyasida shakllantirilgan hamda Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida o'z aksini topgan mamlakatlararo turizm xarakatini osonlashtirish tamoyillariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy va amaliy jihatlari, turizm infratuzilmasi iqtisodiyot va boshqaruv sohasida turli xil darajalardagi sub'ektlari faoliyati, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlatning roli, turizm sohasi rivojlanishining ko'rsatkichlari va infratuzilmaviy elementlarini rivojlanishi darajalariga doir masalalar, turistik xizmatlar samaradorligini baholash usullari, turistik ishlab chiqarish infratuzilmasi, turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xorijiy olimlardan V.V. Dvornichenko ^[2], Giulio Aramberri, Richard Batler ^[3] hamda N.I.Kabushkin ^[4], va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli yondashuv doirasida kompleks, qiyosiy tahlil, iqtisodiy statistika, shuningdek, analiz va eklektizm usuli kabi umumiy ilmiy tamoyillar va bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Tadqiqot davomida jahon va milliy miqyosdagi rasmiy tashkilotlarning statistik materiallari tahlili o'tkazildi, hududiy darajadagi davlat organlari xodimlari, turizm muassasalari rahbariyati va jamoat tashkilotlarining ekspert baholalaridan foydalanildi.

Natija va tahlillar. Turizm tarmog'ining asosiy natijaviy ko'rsatkichi sifatida turizm xizmat ko'rsatish hajmi hamda tashrif buyuruvchilar soni (turistik oqim)ni ko'rib chiqamiz. Mazkur ko'rsatkichlarga ta'sir omillarini shartli ravishda ichki va tashqi guruhlariga ajratish mumkin. Biroq tarmoqning istiqbolli ko'rsatkichlarini prognozlashtirishda tizimning tashkil etuvchilarini hisobga olish birlamch hisoblanadi. Bu esa natijaviy omilning asosiy ichki omillar bilan bog'liqliq yondoshuvini ustuvor baholash imkoniyatini beradi. Shundan kelib chiqib, quyidagi ko'rsatkichlarni belgilab olamiz:

- Y_{xkh} – Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmi, mln so'm;
 - Y_{tbs} – Qashqadaryo viloyatida tashrif buyuruvchilar soni, kishi;
 - X_1 – Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, ming kishi;
 - X_2 – Qashqadaryo viloyatidagi mehmonxonalar soni, birlik;
 - X_3 – Qashqadaryo viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar soni, birlik;
 - X_4 – Qashqadaryo viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, kishi;
 - X_5 – Sotilgan yo'llanmalar soni, birlik;
 - X_6 – Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan mahalliy sayyohlar soni, kishi;
 - X_7 – Qashqadaryo viloyatiga turizm sohasida bandlar soni, kishi;
 - X_8 – Qashqadaryo viloyatiga turizm sohasida kadrlar salohiyati, (oliy ma'lumotli xodimlar soni), nafar;
 - X_9 – Qashqadaryo viloyatiga turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi, mln so'm;
 - X_{10} – Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida tadbir etilgan innovatsion loyihalar soni, birlik.
- Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha qiymatlar jadvalini keltiramiz (1-jadval).

1-jadval: Qashqadaryo viloyatida turizm tarmog'ining natijaviy ko'rsatkichlari va ta'sir omillarining juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ^[5]

Yil	Natijaviy omillar		Ta'sir omillari									
	Y_{xkh}	Y_{tbs}	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5	X_6	X_7	X_8	X_9	X_{10}
2000	10,96	401	0,08	13	2	123	49	321	112	2	0	0
2001	31,21	336	0,15	13	2	123	53	186	114	2	0	0
2002	116,16	561	0,16	14	2	123	51	401	114	2	88,9	0
2003	515,61	546	0,28	14	3	146	63	266	121	5	394,7	0
2004	1337,03	622	0,295	16	3	146	68	327	122	5	795,5	0
2005	1898,38	1062	0,641	16	3	146	73	421	122	5	1215,0	0
2006	1046,90	1443	0,942	16	4	152	86	501	122	7	858,6	0
2007	913,09	1816	1,12	16	5	155	92	696	129	7	517,6	0
2008	531,05	3202	2,5	17	7	163	81	702	129	7	588,2	0
2009	408,77	3120	2,1	18	7	163	97	1020	146	7	1281,3	1



2010	627,16	3077	1,85	23	8	165	121	1227	147	12	950,0	6
2011	603,12	3590	1,95	34	9	167	127	1640	147	12	814,8	8
2012	862,38	4953	3,41	33	11	173	133	1543	1189	12	862,4	11
2013	706,20	7959	6,11	43	11	173	141	1849	1189	12	1422,2	12
2014	450,58	10269	8,92	41	12	176	123	1349	1228	15	117,1	18
2015	792,84	17046	15,12	37	13	484	107	1926	1340	15	232,3	30
2016	994,23	16347	14,67	44	12	484	106	1677	1342	16	432,0	45
2017	2019,33	19016	17,2	43	12	420	102	1816	1600	21	466,7	59
2018	3077,91	54747	53	43	12	422	106	1747	1940	36	1037,5	72
2019	9019,91	151649	150	62	13	635	145	1649	2600	36	3937,2	80
2020	4174,04	7148	7,1	42	13	870	111	48	2600	42	4883,2	82
2021	22951,88	43400	42	31	14	960	89	1400	4600	52	3971,2	112
2022	22265,67	55933	54,5	43	20	1002	103	1433	5400	53	5139,7	200
2023	81215,39	211800	210	45	23	1270	135	1800	12500	72	31940,0	220

Bu yerda: Y_{xkh} va X_9 ko'rsatkichlar 2010 bazis yil bo'yicha real qiymatlarida keltirilgan.

Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni ko'rib chiqamiz (1-jadval). Ma'lumki, korrelyatsion bog'liqlik darajasi natijaviy omillarga tarmoqning tanlangan ichki omillar ta'sirini ifoda etadi, hamda bu umumiy bog'lanish modelining tarkibiy o'zgaruvchilarini tanlash imkoniyatini yaratadi [10].

Qashqadaryo viloyatida turizm tarmog'ining natijaviy ko'rsatkichlari va ta'sir omillarining juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ichki ta'sir omillarining barchasi ham natijaviylik bilan yuqori korrelyatsion zichlikka ega emas. Jumladan, viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni (84%), viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni (78%), turizm sohasida bandlar soni (97%), turizm sohasida kadrlar salohiyati (80%), turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi (97%), viloyatida turizm sohasida tadbiriq etilgan innovatsion loyihalar (83%) to'g'ri va kuchli bog'liqlik kuzatiladi. Xuddi shu omillarning turistik oqimi bilan ham to'g'ri va kuchli bog'liqlikni kuzatishimiz mumkin. Mazkur bog'lanishlar darajasi mantiqiy jihatdan ham o'rinli ekanligini ta'kidlash mumkin. Biroq bir tomondan olib qaralganda kuchli korrelyatsion zichlik tahmin qilingan omillar aks natijaga ega bo'lmoqda. Hususan, X_2 omil har ikkala natijaviy omil bilan sust korrelyatsiyaga ega. Bu quyidagi sabablarga ko'ra kuzatilmoqda deyishimiz mumkin.

- viloyatidagi mehmonxonalar soni so'ngi 20 yillikda 2,82 baravarga oshgan bo'lsada, bu sur'at turizm xizmat ko'rsatish hajmining o'zgarishida muxim rolga ega emas. Chunki bu davrda vohada turizm dinamikasida xorijiy sayyohlar sonining va jami oqimdagi ulushi tez sur'atlarda o'sishi kuzatiladi. Xoriy sayyohlarning joylashuv manzillari aksariyat holda shaxsiy xonodonlarga tog'ri keladi. Natijada mehmonxonalar vositasida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi pastligicha qolmoqda. Ikkinchi natijaviy omil bo'yicha ham ayni holatni keltirish o'rinli;
- Qashqadaryo viloyatidagi turistik firma va tashkilotlar soni (X_3) 2004–2023-yillikda 7,7 barobarga oshgan bo'lsada ular tomonidan xizmat ko'rsatilganlar tashrif buyuruvchilar soni 2004–2015-yillar davomida jadal pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu kuchli tebranma holat turistik firma va tashkilotlar sonining nisbatan barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan xizmatlar hajmi va sayyohlar oqimi bilan sust korrelyatsion bog'lanishiga sabab bo'lmoqda. Ayni shu holat sotilgan yo'llanmalar soni (X_5)ning turistik oqim va xizmat hajmiga sezilarli ta'sirga ega bo'lishini ham cheklamoqda deyish mumkin;
- viloyatda ichki turizm (X_6) ning umumiy tashriflar sonidagi ulushi tez va notebranma pasayish tendensiyasiga ega. Haqiqatan, 2004–2023-yillikda ichki turizm tashriflar soni 5,5 barobarga oshgan bo'lsada, jami tashrif buyuruvchilar sonidagi ulushi bu davrda 52,6 foizdan 0,8 foizga tushib ketgan. Tabiiyki, bu bu holat xizmatlar hajmida ichki turizm xissasining juda kamligiga olib keladi.

Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqada turizmni rivojlantirishda davlat rag'batining bir ko'rinishi bo'lgan ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hamda sohada mehnat qilishga aholining (ishchilar) rag'batini juda muhim omil bo'lib chiqmoqda. Shuningdek, mintaqada turizm rivoji uchun muhim omil sifatida baholanuvchi, jumladan, sayyohlar xavfsizligi, transport tarmoqlari va kommunikatsiyalar, turistik infratuzilma, innovatsion texnologiyalar yetarlicha katta hajmdagi investitsiyalar bilan birgalikda ma'lum bir vaqtni ham talab etadi [11]. Mazkur investitsiyalar tarkibini turizm tashkilotlari va soha tadbirkorlariga ajratilgan imtiyozli bank kreditlarining ma'lum bir qismi tashkil etishi tabiiydir. Ammo, bu yerda imtiyozli kredlardan foydalanish samaradorligini ta'minlash, mintaqada miqyosida izchil, kompleks iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarning mavjudligi va faolligiga bevosita



bog'liq bo'lib qolaveradi. Shu sababli tadqiqotimizda mintaqada turizmga ajratilgan imtiyozli kredlardan foydalanish samaradorligini baholashning ekonometrik modeli ko'rib chiqildi. Bu modelni quyidagicha keltirish mumkin

$$NK = Q(AO, IK) \quad (3)$$

Bu yerda: NK-natijaviy ko'rsatkich, Q-qoida, AO-asosiy omillar, IK-imtiyozli kreditlar. Bizning holda (3.3.2) uchun quyidagi model ishlab chiqildi:

$$Y_{xkh} = -124,63 + 7,25 \times AO_1 + 2448,07 \times AO_2 + 0,202 \times IK \quad (4)$$

$$t = (-3,391) \quad (2,534) \quad (3,964) \quad (8,934)$$

Bu yerda AO_1 – mintaqada sayyohlar turistik infratuzilmani yaxshilashda turistik firma va tashkilotlarning xarajatlari, mln so'm, AO_2 – turistik firma va tashkilotlarning innovatsion faoliyatga e'tibor darajasi (umumiy harajatlarda innovatsion faoliyat xarajatlari), foizda, $IK = X_9$, $NK = Y_{xkh}$.

(4) modelning elastiklik ko'rsatkichlariga ko'ra, mintaqada turizm xizmat ko'rsatish hajmi sayyohlar turistik infratuzilmani yaxshilashda turistik firma va tashkilotlarning xarajatlarini 1 foizga oshganda 0,37 foizga, turistik firma va tashkilotlarning innovatsion faoliyatga e'tibor darajasini 1 foizga oshirganda 0,56 foizga, imtiyozli kreditlar hajmini 1 foizga oshirganda 0,07 foizga oshishi ta'minlanadi. Mazkur natijalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- sayyohlar turistik infratuzilmani yaxshilashda turistik firma va tashkilotlarning xarajatlari va innovatsion faoliyat xarajatlarining imtiyozli bank kreditlari hisobidan qoplanishi o'sish tendensiyasini saqlab qoladi ammo sur'atini oshirmaydi (chunki omillar elastiklik ko'rsatkichlari summasi taqriban 1 ga teng);
- mintaqada turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli kredlardan foydalanish samaradorligi o'rta darajada bo'lib, samaradorlikni oshirishda bank kreditlaridan farqli ravishda boshqa turdagi investetsiyalar salmog'ini oshirish zarur;
- mintaqada turizm tarmog'iga berilayotgan hukumat e'tibori, yaratilayotgan imtiyozlar, tarmoqda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mexanizmlarining joriy etilishi asosida yangi ish o'rinlarining tez sur'atlarda ortishiga olib kelishi xizmat ko'rsatish hajmining o'sish sur'atini oshiradi (imtiyozli kreditlar va bandlik uchun elastiklik ko'rsatkichlari summasi 1 dan yuqori).

Tadqiqotimizda Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyuruvchilar oqimini prognozlashtirish modeli tarkibiy o'zgaruvchilari sifatida tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar oqimi (X_1), turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni (X_4), mintaqada turizm sohasida tatbiq etilgan innovatsion loyihalar soni (X_{10})ni yuqoridagi korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra tanlab olishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Natijada modelning umumiy ko'rinishini quyidagicha keltiramiz

$$Y_{tbs} = b_0 + b_1 \times X_1 + b_2 \times X_4 + b_3 \times B_n \quad (5)$$

Bu yerda: b_i , $i = 0, \dots, 3$ – model koeffitsiyentlari, B_n – binary o'zgaruvchi bo'lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$B_{nT} = \begin{cases} 0, & \text{agar } X_{10}^{(T)} = 0 \\ 1, & \text{agar } X_{10}^{(T)} \neq 0 \end{cases}, \quad T = 2000, \dots, 2000 + n - 1 \quad (6)$$

Bu yerda n - turizm sohasida tatbiq etilgan innovatsion loyihalar soni bo'yicha kuzatishlar soni (bizning holda $n=24$)

(5) modelning koeffitsiyentlari va adekvatlik ko'rsatkichlari 3.7-jadvalda keltirilgan. Unga ko'ra


- sifat tekshiruvi ijobiy: determinatsiya koeffitsiyenti 0,999 ga, to'g'rilangan determinatsiya koeffitsiyenti 0,999 ga teng. Tashrif buyuruvchilar sonining dispersiyasi 99,9 foiz (5) munosabatdan kelib chiqadi;
- modelning ahamiyatlilik tekshiruvi ijobiy: hisoblangan Fisher mezoni jadval qiymatidan katta ($160099 > 3,1$) va uning ahamiyati uchun F_{prob} 0,05 dan kichik. Modelning approksimatsiyalaish darajasi yuqori (hisoblangan o'rtacha absolyut-nisbiy xatoligi 7,71 foiz);
- modelning barcha koeffitsiyentlari ahamiyatli: hisoblangan eng kichik t-statistika qiymati jadval qiymati 2,08 dan absolyut jihatdan katta ($2,0875 > 2,08$);
- modelda avtokorrelyatsiya mavjud emas: hisoblangan Darbin-Uotson mezoni 1,7 ga teng bo'lib jadval qiymatiga ko'ra $1,68 < 1,7 < 2$ shartni qanoatlantiradi. Umumiy holda modelning umumiy monandlik tekshiruvi ijobiy.



7-jadval: Qashqadaryo viloyatida tashrif buyuruvchilar oqimini prognozlashtirish uchun tuzilgan ko'p omilli regression modelning monandlik natijalari ^[5]

Modelning matematik ifodasi							
$Y_{tbs} = 535,6691 + 1,005 \times X_1 - 0,7468 \times X_4 + 1112,064 \times B_n$							
Modelning adekvatlik koʻrsatkichlari							
Koeffitsiyent	t-statistika	p-qiyamat	R ²	$\overline{R}^2$	F	F _{prob}	DW
1.005199	467.4467	0.0000	0.999	0.999	160099	0.000	1.70
-0.746810	-2.087479	0.0498					
1112.064	6.323362	0.0000					
535.6691	4.104287	0.0006					
Mezonlarning jadval koʻrsatkichlari, (muhimlik darajasida)							
k ₁ = 3, k ₂ = 20 holatida F _{jad} qiymati							3,10
k ₁ = 3, k ₂ = 20 holatida Darbin-Uotson mezoni uchun (d _U) qiymati							1,68
k = 20 holatida t _{jad} qiymati							2,08

Qashqadaryo viloyatida tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimi ham turizm xizmatlari hajmi singari normal taqsimot qonuni ta'sirida ekanligini ko'rish mumkin (3.3.2-rasm). Bizning holda JK uchun Probability ko'rsatkichi 0,04902 ga teng.



1-rasm: Natijaviy omil (Y_{tbs})ning normal taqsimotga tekshirish natijalari ^[5]

Tuzilgan chiziqli modelning elastiklik koeffitsiyentlari hisoblab chiqilganda, quyidagi mulohazalarning o'rinli ekanligini keltirishimiz mumkin:

- Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar sonining 1 foiz ortishi tashrif buyuruvchilar sonining 0,96 foizga ortishi bilan tavsiflanadi. Haqiqatan, 2023-yilda xorijiy sayyohlarning jami tashrif buyuruvchilar tarkibidagi ulushi 99,15 foizni tashkil qilgani holda, 2000-yilga nisbatan 4,97 barobarga, 2010-yilga nisbatan 1,65 barobarga ortgan. Bu nisbatlar va ulush ko'rsatkichi mintaqada so'ngi yillarda turizm rivoji asosan xorijiy sayyohlar oqimining o'zgarish dinamikasi bilan chambarchas bog'liqligini ifoda etadi. Demak, mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda muhim "o'sish nuqtasi"dan biri xorijiy sayyohlarni jalb etish mexanizmini kuchli rag'batlantirish bo'lib chiqmoqda;
- Qashqadaryo viloyatiga turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar sonining ortishi tashrif buyuruvchilar oqimining ortishi uchun asosiy manba hisoblanmaydi, ammo o'sish tendensiyasiga katta aks ta'sir bilan nomoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sababi mintaqada turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar sonining jami tashriflar tarkibidagi ulushi keskin pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu ulush 2000 yilda 30,67 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 5,36 foizga teng bo'lib, 2023-yilga kelib 0,6 foizga ham yetmaydi. Mazkur holatni mintaqada turizm tarmog'ida yashirin iqtisodiyot tizimining rivojlanganligi, shuningdek, turistik firma va tashkilotlarga o'rta hisobda mos keluvchi tashrif buyuruvchilar sonining kuchli tebranma xarakterga ega ekanligida kuzatiladigan nobarqarorlik bilan izohlash mumkin. Mazkur ko'rsatkichining 1 foiz ortishi natijaviylikning 0,01 foiz pasayish tendensiyasini yuzaga keltirishini tarmoqning rivojlanish istiqboli uchun katta xavf sifatida baholash mumkin. Negaki, tarmoqni rivojlantirish subyektlari aynan turistik firma va



tashkilotlar hisoblanib, model natijalari mintaqada ularning faoliyati mutloq samarasiz tashkil qilinishda deyish uchun ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi. Demak, mintaqaning turizm tarmog'ida yana bir "o'sish nuqtasi" turistik firma va tashkilotlar faoliyatini chuqur isloh etish, samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

- Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida tadbqiq etilgan innovatsion loyihalar sonining ortishi tashriflar oqimining ortishiga olib keladi. Hususan, joriy qilingan innovatsiyalar tashriflar sonini mutlaq 1112 kishiga ortishini ta'minlaydi. Mazkur holat, sayyohlarning yangicha o'zgarishlarga, hususan, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar va qulayliklar, hamda xavfsizlik ta'minoti tizimidagi innovatsion yondoshuvlar va vositalarga kuchli rag'bat bildirishini ifoda etib, tarmoqda innovatsion loyihalarni ko'paytirish va samarali qo'llash yana bir "o'sish nuqtasi" bo'lishi mumkinligini asoslaydi.
- model tarkibidagi o'zgarmas hadga mos keluvchi elastiklik ko'rsatkichi, muqarrar ehtimol bilan ichki sayyohlik oqimining o'zgarishiga tashriflar oqimining o'zgarish reaksiyasini ifoda etadi. Unga ko'ra ichki sayyohlik oqimining 1 foiz ortishi tashriflar oqimining 0,02 foiz ortishini ta'minlab beradi. O'tgan so'ngi qariyb 2,5 dekadalik davrda mintaqada tashriflar sonining o'rtacha tendensiyasi 25835 kishini tashkil etgani holda, bu jarayonda ichki turizmning umumiy tendensiyada taqriban 535 kishiga mos kelishi kelib chiqadi. Buni modelning ozod hadi qiymatidan yoki 535:25835 nisbatning elastiklikka aynan mosligidan kelib chiqib aytish mumkin. Demak, model natijalariga tayanilsa, mintaqada ichki turizmni "jonlantirish" tarmoqning navbatdagi "o'sish nuqtasi" bo'lishligini taxmin qilishga asos bor.

Yuqorida ishlab chiqilgan, monadlik talablarini qanoatlantiruvchi modellar yordamida Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (3.3.10-jadval).

Hisoblash natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida:

- tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni keyingi 5 yilda, o'rtacha 15,7 foizdan o'sib boradi. 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 2,07 barobarga ortib, 435,216 ming nafarga yetishi ta'minlanadi;
- turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni keyingi 5 yilda, o'rtacha 2,4 foizdan o'sib boradi. 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 1,12 barobarga ortib, 1427 nafarga yetishi ta'minlanadi;
- turizm sohasida bandlar sonining keyingi 5 yilda o'rtacha o'sish sur'ati 11,8 foizni tashkil etib, 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 1,75 barobarga ortadi;
- turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi keyingi 5 yilda o'rtacha o'sish sur'ati 14,7 foizni tashkil etib, 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 1,98 barobarga ortadi. Real qiymatda (2010-bazis yilga nisbatan) 63,405 mlrd so'mga yetishi ta'minlanadi (8-jadval).

8-jadval: Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari ^[5]

Prognoz yillari	X ₁	X ₄	X ₇	X ₉
	Tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, kishi	Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, kishi	Turizm sohasida bandlar soni, kishi	Turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmi, mln so'm*
2024	214824	1298	12307	34468,5
2025	232598	1328	13067	37439,1
2026	273753	1359	14583	45004,2
2027	322142	1392	16820	53237,3
2028	435216	1427	19827	63404,9
2024–2028-yillarda o'rtacha o'sish sur'ati, foizda	15,7	2,4	11,8	14,7
2028/2023 nisbat, marta	2,07	1,12	1,75	1,98

* bu yerda X₉ ko'rsatkichning real qiymatlari 2010 yil narxlar indeksi asosida hisoblangan

Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning prognoz ko'rsatkichlari va tuzilgan (3.3.1) va (3.3.4) shaklidagi chiziqli ko'p omilli ekonometrik modellar yordamida Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmi hamda tashrif buyuruvchilar oqimi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblab chiqildi (3.3.11-jadval).

Unga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida:

- turizm xizmat ko'rsatish hajmining keyingi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 13,7 foizni tashkil etgani holda, 2028-yilda 2023 yilga nisbatan 1,9 barobarga ortishi ta'minlanib, 2010 bazis yilga nisbatan real qiymatda 153,4433 mlrd so'mga yetadi;



- turizm xizmat ko'rsatish hajmining keyingi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 15,6 foizni tashkil etgani holda, 2028-yilda 2023-yilga nisbatan 2,07 barobarga ortishi ta'minlanadi (3.3.11-jadval).

9-jadval: Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirishning o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ^[5]

Prognoz yillari	Y _{xkh}	Y _{tbs}
	Turizm xizmat ko'rsatish hajmi, mln so'm	Tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi
2024	87506,60	216,619
2025	93701,32	234,464
2026	111425,53	275,809
2027	129918,61	324,425
2028	153443,25	438,061
2024–2028-yillarda o'rtacha o'sish sur'ati, foizda	13,7	15,6
2028/2023 nisbat, marta	1,90	2,07

Qashqadaryo viloyatida turizm xizmat ko'rsatish hajmining yuqori sur'atda o'sishida tarmoqda mehnat qilayotgan xodimlar sonining hamda imtiyozli kreditlar hajmining ortishi katta ta'sirga ega bo'ladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan modellashtirish natijalariga ko'ra, mintaqada turizm xizmat ko'rsatish hajmining ortishi bandlar sonining 1 foizga oshganda 0,7 foizga, ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmining 1 foizga oshganda 0,6 foizga ortishi asoslangan edi. Demak, model asosida hisoblab chiqilgan qiymatlarga ko'ra:

- Qashqadaryo viloyati turizm tarmog'iga ajratilgan imtiyozli bank kreditlari hajmining ortishi bilan keyingi besh yillikda mintaqada turizm xizmat ko'rsatish hajmi real qiymatda, o'rta hisobda 10,161 mlrd so'mdan, bandlar sonining ortishi bilan esa 9,515 mlrd so'mdan oshib borishi ta'minlanadi.
- Qashqadaryo viloyati turizm tarmog'ida tashriflar sonining, ya'ni sayyohlar oqimining ortishida xorijiy sayyohlar oqimi hal qiluvchi rolga ega bo'ladi. Shuningdek, tarmoqqa tadbqiq etilayotgan har bir innovatsion loyiha yillar kesimida mazkur oqimning mutlaq 1112 kishiga ortib borishini ta'minlab beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar soni ortib bormoqda. Ular nafaqat normativ-huquqiyasosga ega, balki ijroning ham to'raligicha amalga oshirilishi qatsiy belgilanmoqda. Xusuusan bu imkoniyatlardan yana biri soliq tushumlarining kamaytirilishi yoki butunlay ozod etilishi bilan belgilanmoqda. Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy sub'ektlaridan unduriluvchi soliq mexanizmlari shu mamlakat iqtisodiy ahvoli va turli modifikatsiyalaridan kelib chiqib belgilanmoqda. Davlat tomonidan turizmni rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Bu holat turizm infratuzilmasini ma'lum yo'qotishlardan so'ng qayta tiklash va dunyo miqyosidagi o'rni qayta egallashga imkon bermoqda. Jahon iqtisodiy doirasida turizmning salohiyatini oshirish maqsadida eng kichik bo'g'inlar ham o'z imkoniyatlarini to'liq sarf etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Официальный сайт Всемирного совета по туризму и путешествиям [Электронный ресурс]. – URL: <https://wttc.org/en-gb/Research/Economic-Impact> (дата обращения 1.05.2020).
- Дворниченко В.В. История международного и национального туризма. М. Издательство МЭСИ, 2001.
- Julio Aramberri, Richard Butler "Tourism development: Issues for aVulnerable Industry", Arizona State University. USA 2004.293P
- Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. – Минск: Новое знание, 2002. – 407 с.
- Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
- Дворниченко В.В. История международного и национального туризма. М. Издательство МЭСИ, 2001.
7. Kotler, Boven & Makens (2006), Marketing for Hospitality and Tourism 4th ed, Pearson Education, Ink, 2006.
- Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. – М.; Издательский центр "Академия", 2008. – 384 с.
- Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova "The importance of innovative activity in tourism". Scholar Journal (ESJ) 4, April 2021. P 467-472.
- Lavinia A. et al. (2024). A Mathematical Programming Approach to Sparse Canonical Correlation Analysis. Expert Systems with Applications. Volume 237, Part A, 2024, 121293 // 2) Y. Xiang et al. A multi-factor spatio-temporal correlation analysis method for PV development potential estimation. Renewable Energy, Volume 223, 2024, / <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0960148124000272>
- Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektamirov A.B. "Xalqaro turizm". Darslik. Toshkent – SamISI. 2008. –324 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.